


**2019-yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan
korxonalar va tashkilotlar demografiyasi
bo'yicha tahliliy ma'lumot**




Buxoro -2019

2019-yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 4276 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2205 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4923 ta (27,3 %)ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 22966 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-avgust holatiga 22966 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,3 %ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,7 % savdo, 15,7 % sanoat, 10,2 % qurilish, 9,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,0 % tashish va saqlash, 1,1 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 23,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.08.2019 yil	
	01.08.2018 yil	01.08.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	18043	22966	127,3	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1829	2270	124,1	9,9
Sanoat	2557	3617	141,4	15,7
Qurilish	1882	2338	124,2	10,2
Savdo	3905	5444	139,4	23,7
Tashish va saqlash	1161	1387	119,5	6,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1136	1672	147,2	7,3
Axborot va aloqa	217	236	108,8	1,1
Sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	479	556	116,1	2,4
Boshqa turlari	4877	5446	111,7	23,7

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7360 ta), G'ijduvon (2511 ta), Romitan (1746 ta) va Buxoro tuman (1708 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qorovulbozor tumani (427 ta), Olot (750 ta) tumanlari, hamda Kogon shahri (822 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 21884 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4725 ta (27,5%) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 23,5 % savdo, 15,8 % sanoat, 10,2 % qurilish, 9,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,1 % tashish va saqlash, 1,1 % axborot va aloqa, 2,5 % sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

15,8 %



Sanoat

23,5 %



Savdo

10,2 %



Qurilish

1,1 %

Axborot
va aloqa

7,2 %

Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

6,1 %

Tashish
va saqlash

9,6 %

Qurilish, o'rmon
va baliq xo'jaligi

2,5 %


Sog'lqnini saqlash va
ijtimoiy xizmatlatlar
ko'rsatish

24 0 %

Boshqa
turlari

Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7141 ta), G'ijduvon (2291 ta), Romitan (1701 ta), Buxoro (1541 ta) va Jondor (1486 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (415 ta), Olot (675 ta) tumanlarida hamda Kogon sh. (802 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-iyul oylarida 4276 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`satkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2205 taga ko`pdir.

Yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Buxoro shahri (1353 ta), G`ijduvon (514 ta), Romitan (350 ta) va Jondor (337 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (77 ta), Olot (147 ta) tumanlari hamda Kogon sh. (160 ta) da korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`satkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1415 ta), sanoat (960 ta), qurilish (441 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (394 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (32 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (53 ta), hamda tashish va saqlash (190 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-avgust holatiga 18 589 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3 433 ta, oilaviy korxonalar – 1 456 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 13 353 ta va boshqalar 347 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 234 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 115 taga yoki 96,6 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yil 1-avgust holatiga xorijiy kapital ishtirokida 234 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqori Buxoro shahri (123 ta), Kogon t (20 ta), Peshku (14 ta) tumanlari va Kogon sh. (13 ta) hissasiga to'g'ri

keladi. Nisbatan kamlari Olot (4 ta), Qorako'l va Shofirkon (5 ta)dan hamda G'ijduvon (6 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'ssatayotgan korxonalardan 142 tasi qo'shma korxonalar, 92 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Buxoro viloyati bo'yicha	234	100
<i>tumanlar:</i>		
Olot	4	1,7
Buxoro	12	5,1
Vobkent	7	3,0
G'ijduvon	6	2,6
Kogon t	20	8,5
Qorako'l	5	2,1
Qorovulbozor	7	3,0
Peshku	14	5,2
Romitan	8	3,4
Jondor	10	4,3
Shofirkon	5	2,1
<i>shaharlar:</i>		
Buxoro sh	123	52,6
Kogon sh	13	5,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 79 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52 taga ko'paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar (40 ta yoki jamidagi ulushi 50,7 %), Kogon tumani (8 ta yoki 10,1 %) va Kogon shahar (6 ta yoki 7,6%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Buxoro, G'ijduvon, Jondor tumanlarida (2 ta yoki

2,5 %), Peshku va Shofirkon tumanlarida (3 ta yoki 3,8 %) va Olot va Qorovulbozor tumanlari (4 ta yoki 5,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkmaniston Respublikasi rezidentlari ishtirokida – 27, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 11 ta, Turkiya Respublikasi - 10 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 9 ta, Eron Respublikasi - 3 ta va Koreya Respublikasi - 6 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-iyul oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (26 ta), savdo (23 ta), qurilish (13 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (10 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta), hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (4 ta) tashkil etgan.


**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



Kichik korxona va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-avgust holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 18459 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-avgust holatiga qaraganda 32,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6248 tasi (33,8 %) Buxoro shahri, 1949 tasi (10,6 %) G'ijduvon, 1462 tasi (7,9 %) Romitan, hamda 1244 tasi (6,7 %) Jondor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 18459 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5120 tasi (27,7 %) - savdo, 3425 tasi (18,5 %) - sanoat, 2209 tasi (12,0 %) - qurilish, 2063 tasi (11,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1579 tasi (8,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1306 tasi (7,1 %) - tashish va saqlash, 209 tasi (1,1 %) – axborot va aloqa sohasi, 464 tasi (2,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

ko'rsatish, shuningdek 2084 tasi (11,3 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyul oylarida 4123 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,3 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahri (1295 ta), G'ijduvon (506 ta), Romitan (336 ta) va Jondor tumanlari (331 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (75 ta), Olot (143 ta) tumanlari hamda Kogon shahri (158 ta) da tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (290 ta), sanoatda (157 ta), qurilishda (110 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (159 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (11 ta), axborot va aloqada (13 ta) hamda tashish va saqlashda (71 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-avgust holatiga 1527 tani tashkil etib, ulardan 1456 tasi yoki 95,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 56,5 % ga oshganligini

ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,7 % yoki 449 tasi sanoat, 30,3 % yoki 441 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,6 % yoki 271 tasi savdo, 9,6 % yoki 140 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 14 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 30 tasi sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 14 tasi qurilish, 0,6 % yoki 9 tasi axborot va aloqa hamda 6,0 % yoki 88 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Buxoro viloyati	531	100
Buxoro sh.	125	23,6
Kogon sh.	27	5,1
<i>tumanlar</i>		
Olot	20	3,8
Buxoro	30	5,7
Vobkent	47	8,8
G'ijduvon	116	21,8
Kogon	21	3,9
Qorako'l	21	3,9
Qorovulbozor	4	0,8
Peshku	8	1,5
Romitan	13	2,4
Jondor	32	6,1
Shofirkon	67	12,6

2019-yil yanvar-iyul oylarida 531 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Buxoro sh (125 ta), G'ijduvon (116 ta), Shofirkon (67 ta) va Vobkent tumanlari (47 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (4 ta), Peshku (8 ta) hamda Romitan (13 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 35,2 % yoki 187 tasi sanoat, 25,6 % yoki 136 tasi savdo, 26,0 % yoki 138 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 6,0 % yoki 32 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki 3 tasi qurilish, 1,3 % yoki 7 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 4 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 3,9 % yoki 21 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi
Tel.:71-230-83-20 (21)**